

**O'zbekiston respublikasi madaniyat va sport ishlari vazirligi
O'zbekiston davlat sa'at va madaniyat instituti**

Musiqa nazariyasi fanidan

KURS ISHI

**Mavzu: Garmonik va milodik minor tonalliklari.
Paralll tonalliklar minor tonalliklarining kvinta
davrasi.**

Bajardi: Xalq ijodiyoti fakulteti
XAvaRAR bo'limi 1-bosqich
Talabasi Fayziyev Sherzod
Tekshirdi: Qodirova X.R.

Major va minor tonalliklari .

Reja.

1. Major va minor tonalliklarining intervallari.
2. Garmonik major va garmonik minor.
3. Harakterli intervallar.
4. Turg'un va noturg'un intervallar.

Major tonalliklari

Tonallik

Do va *re* tovushlaridan tuzilgan major ladlari gammalarini bir-biriga taqqoslab, ularning bir xil tuzilganligiga, bir xilda eshitilishiga ammo, ular joylashgan balandligi va alteratsiya belgilari bilan farq qiluvchi turlicha tovush tarkiblari bilan farq qilishiga ishonch hosil qilish mumkin.

Ma'lum bir tonikaga va o'zining doimiy alteratsiya belgilariga ega bo'lgan lad – **tonallikni** hosil qiladi. Tonalliklar o'z nomini tonika sifatida qabul qilingan tovush va ladni belgilovchi so'z qo'shilmasidan oladi. Masalan, *do* major tonalligi – tonikasi *do* tovushi bo'lgan major ladidir, *mi* major tonalligi esa tonikasi *mi* tovushi bo'lgan major ladidir.

Tonalliklar harfiy ishoralar bilan belgilanganda “major” so'zi *dur* (lotincha. durus – qattiq) so'zi bilan almashadi, masalan, *do* major = C-dur, *fa* major = F-dur, *mi*-bemol major = Es-dur va h.k. Major tonalliklarining nomlari harfiy ishoralar bilan belgilanganda doimo katta harflar bilan yoziladi: E-dur, D-dur, H-dur va h.k.

Major tonalliklari

Diez belgilarining soni tobora ortib boruvchi tonalliklarning ketma-ketligini, har bir yangi gammani avvalgisidan sof kvinta yuqorida (diezli major tonalliklarini) tuzish mumkin. Xuddi shunga o'xshatib bemolli tonalliklar ketma-ketligini, avvalgisidan sof kvinta pastda tuzish mumkin. Bunda intervallar aylanishi qoidalaridan kelib chiqib, qulay bo'lishi uchun tonalliklarni kvinta yuqorida tuzish o'rniga kvarta pastda, kvinta pastda tuzish o'rniga kvarta yuqorida tuzish mumkin.

Musiqa asarlarining tonalliklarini to'g'ri aniqlash uchun har bir tonallikning kalit alteratsiya belgilarini mahkam esda saqlab qolish kerak bo'ladi.


Har bir tonallik o'zining alteratsiya belgilariga ega bo'lganligi sababli, kalit alteratsiya belgilari har bir tonallikning o'ziga xos belgisi hisoblanadi. Shuning

uchun ham, kalit alteratsiya belgilariga qarab, har bir musiqa asarining tonalligini aniqlash mumkin bo`ladi.

Musiqa asarlarining nota matnlarida tonallikni aniqlovchi, kalit alteratsiya belgilaridan tashqari, ayrim tovushlarni epizodik ravishda ko`tarilishlari yoki pasayishlarini ham uchratish mumkin. Bunday hollarda alteratsiya belgilari aynan, ma`lum bir notalar oldida qo`yiladi va o`z kuchini faqat shu nota va u ko`rsatilgan oktava uchun hamda shu takt davomida saqlaydi, xolos. Bunday alteratsiya belgilariga - doimiy hisoblangan **kalit alteratsiya belgilaridan** farqli o`laroq, **tasodifiy alteratsiya belgilari** deyiladi.


Masalan:

S. Raxmaninov. Preljudyia cis-moll or.3



Tonalliklar engarmonizmi

Engarmonik teng tovushlar va intervallarga o`xshagan engarmonik teng tonalliklar ham uchraydi. Masalan; Sol bemol major – Fa-diez majorga, Do-bemol major – Si majorga, Do-diez major – Re-bemol majorga engarmonik ravishda tengdir:



5, 6 va 7 diezli major tonalliklarining har biri beshtadan ettigacha bemol belgisi boʻlgan bemolli tonalliklarning bittasiga engarmonik jihatdan tengdir va aksincha.


Balandligi bir xil, lekin nomlari va yozilishi turlicha boʻlgan tonalliklarga **engarmonik teng tonalliklar** deyiladi.

Engarmonik teng tonalliklar turlicha notalashtirilishiga qaramasdan, bir xil tovush balandligiga egadirlar.

Engarmonik tonalliklarning kalit belgilarining umumiy yigʻindisi 12 ga tengdir.

Yuqoriga tomon sof.5 boʻyicha tuzilgan diezli va pastga tomon sof.5 boʻyicha tuzilgan bemolli major tonalliklarining joylashuv tartibiga **kvinta davrasi** deyiladi:

Major tonalliklarining kvinta davrasi



Garmonik va melodik major

Garmonik major

Musiqada tabiiy majordan tashqari major ladining boshqa turlari ham uchraydi. Ulardan **garmonik major** deb atalgan turi rus va chet el mumtoz kompozitorlarining musiqasida ko'p uchraydi. U tabiiy majordan pasaytirilgan VI pog'onasi bilan farq qiladi. Garmonik majorda VI pog'onaning pasaytirilishi natijasida VI va VII pog'onalar orasida 1.5 tonlik oraliq, ya'ni ort.2 intervali hosil bo'ladi. VI pog'onaning pasayishi natijasida uning V pog'onaga tomon tortilishi yanada kuchayadi. VI pog'onaning

Majorning bu turi asosan ravon harakatdagi, pastlama kuy yo'nalishlarida uchraydi.

P. Chaykovskiy. "Evgeniy Onegin", 2 ko'rinish



pasaytirilishi majorning minor ladiga xos bo'yoqlarda eshitilishiga yordam beradi. Bundan tashqari VI pog'onaning pasaytirilishi akkordlar tuzilishini ham o'zgartirib yuboradi. Bu esa, o'z navbatida kuyning garmonik jo'riga ham ta'sir etadi.

Shuning uchun ham bu ladning nomi garmonik majordir.

Garmonik major tabiiy majordan shuningdek, tovushlari 0,5 ton – 1,5 ton – 0,5 ton tizimida joylashgan yuqorigi tetraxordi bilan ham farq qiladi. Tetraxordning bu turiga **garmonik tetraxord** deyiladi. Shunday qilib, garmonik major gammasi major va garmonik tetraxordlardan tashkil topadi.




Quyida keltirilgan A. Glazunovning "Raymonda" baletidagi parchada doimo garmonik Iya-major saqlanadi (fa-bekar – pasaytirilgan VI pog'ona).

A. Glazunov. "Raymonda", II ko'rinish



Melodik major

Musiqada onda-sonda bo'lsa ham melodik major deb ataladigan, kuyning pastlama harakatida VII va VI pog'onalari pasaytirilgan lad turi ham uchrab turadi.



Tabiiy major va tabiiy minor pog'onalari fakat diatonik interval xosil qiladi. Har bir pog'onadan interval tuzish mumkin. Yondosh intervallardan har birining umumiy soni ladning etti pog'onasi soniga tengdir.

1 Tabiiy major va minorda uxshash intervallar xosil bo'ladi va ularning soni bir-biriga teng keladi.

2 Minorda majorga uxshagan barcha intervallar majordagiga karaganda ikki pog'ona yuqorida joylashadilar.



3 Major intervallarini o'rganishda, tez esda koladigan intervallar S. 1 va S. 8, Kich 2 va kat 2, kat 3. ort 4 va kam 5, S. 4, S. 5 va boshqalardan boshlash kerak bo'ladi.

Major intervallari o'rganilgandan keyin, ularni minor intervallarining joylashishi bilan takkoslash unchalik qiyin bo'lmaydi.


Garmonik major va garmonik minor intervallari

harakterli intervallar.


Garmonik majorda Y1 pog'onaning pasaytirilishi va garmonik minorda Y11 pog'ona ko'tarilishi natijasida xosil bo'lgan intervallar tabiiy major va tabiiy minor intervallaridan fark qiladi.

Garmonik major va garmonik minor xosil bo'ladigan intervallar tabiiy ko'rinishda uchramaydilar. Bu xildagi intervallarga Xromatik yoki Harakterli intervallar deyiladi. Ular fakat Garmonik major va Garmonik minorda shunday ataladilar. 4 ta Harakterli intervallar bor. Bu ortirilgan sekunda. Kamaytirilgan septima. Ortirilgan kvinta va kamaytirilgan kvarta.

Bu xol Majorda YI pog'onani pasaytirilishiga bog'liq.



2. Ayrim diatonik intervallarning shakli o'zgaradi S 4 bilan S 5 o'rniga ortirilgan kvarta va kamaytirilgan kvinta shaklida 2 -ta uchtonlik xosil bo'ladi.




Garmonik major va Garmonik minor ularning qaysi pog'onalaridan tuzilganligini bilish kerak.

- Harakterli intervallar
- Kichik sekundalar.
- Katta va kichik tersiyalar(uchtovushlik tuzish uchun)
- Ortirilgan 4 va kamaytirilgan 5.


Turg'un va noturg'un intervallar.

Lad pog'onalari yordami bilan tuzilgan har bir interval o'zining akustik, oxangdosh(konsonans) yoki nooxangdosh (dissonans), bo'lishidan tashqari, turg'un yoki noturg'un pog'onalaridan tuzilganligiga qarab Lad hususiyati aniqlanadi. Intervallar turg'un va noturg'unga ajratiladi. Agar bitta turg'un va bitta noturg'un tovush tuzilsa, noturg'un intervalga kiradi. Nooxangdosh interval qaysi xolatda bo'lmasin har doim noturg'un interval hisoblanadi. echilish. Nooxangdosh noturg'un intervalning echilishi deb uning oxangdosh turg'un intervalga utishi (aylanishi) ga aytiladi. Noturg'un interval fakat turg'un intervalga o'tgandagina echiladi .

a) Katta 2 va kichik 7 echilishi.




b) Nooxangdosh xolatdagi Sof 4 echilishi



v) Kichik 2 va katta 7 echilishi.



g) Uchtonlik echilishida ikkita tovush bir pog'ona tortilish tomonga o'tadi, ortirilgan 4 - ikki tomonga , kamaytirilgan 5- bir - biriga qarab.



Uchtonlik tarkibida turg'un tovush bo'lsa va echilish zarur bo'lsa, turg'un o'z o'rnida koladi. Noturg'un esa tortilish tomonga yo'naladi. Harakterli intervallar ham turg'un va noturg'un intervallar qoidasi bo'yicha echiladi

ADABIYOTLAR

1. *Elementar nazariyasi» Vaxromeev. T.1967 y.*
 2. *O.Fayziev «O'zbekiston maktablarida musiqiy-nafosat tarbiyasi» T. 1992 y.*
 3. *O.Azimova Garmoniya . T, 1999.*
 4. *I.A.Akbarov «Musiqqa lug'ati» - T, 1997.*
 5. *O'zbekiston Vatanim manim T, 2000, 2002.*
- P.I. CHaykovskiy Detskiy albom, Vremena goda*